



KOREYS VA O'ZBEK MAQOLLARNING BADIYATI QIYOSI

Abdumalikova Mahliyo

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2-bosqich talabasi

abdumalikovamahliyo260@gmail.com

Aliqulova Feruza Abror qizi

O'zDJTU, koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

aliqulovaf1307@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys va o'zbek maqollarining badiiyati obrazlilik, tasviriylik, tilda ishlatilgan badiiy vositalar, ritm va ohangdorlik jihatlari asosida o'rganilib, ular orasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Maqollar misolida har ikki xalqning dunyoqarashi, urf-odatları va ma'naviy qadriyatlari badiiy ifoda orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: folklor poetikasi, alliteratsiya, majoz va ramz, qiyosiy tahlil, madaniyatlararo muloqot, maqolshunoslik, milliy tafakkur

Maqollar o'ziga xos janr xususiyatlari, keng mavzu doirasi va badiiy ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Ular tovush takrorlari (alliteratsiya, assonans), ma'no ko'chishlari (metafora, metonimiya, kinoya) hamda badiiy tasvir vositalari (o'xshatish, sifatlash) orqali ta'sirchanlik kasb etadi. Shu bois ularni o'qiganda yoki eshitganda o'ziga tortuvchi sehr seziladi. Ayniqsa, ramz va majozlarning tez-tez uchrashi maqollarni yodda saqlashni osonlashtiradi hamda ularning badiiylik darajasini oshiradi.

Maqollar xalq ijodiyotining mustaqil janri sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning tili sodda, ifodali va ko'rkam. Ular ko'plik leksik va sintaktik, poetik usullari bilan an'anaviy folklorga xos turli majozlar, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a kabi badiiy vositalari bilan diqqatga sazovordir. Bu poetik vositalar maqollarning tinglovchiga bo'lgan ta'sirini orttiradi [1].



Haqiqiy maqollarning shakllanishi uzoq davrni qamraydi, ammo badiiy mukammal va hayot tajribasi aks etgan maqolning umri boqiy bo‘ladi. “Qonni qon bilan yuvib bo‘lmaydi” maqolini Mahmud Koshg‘ariy “Qanig‘ qan bilan jumas” tarzida keltirilgan. Bu maqol olim qalamiga tushguniga qadar necha-necha asrlar yashaganini faqat taxmin qilish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, maqollarning badiiy mukammaligi ularning hayotiyiligini, umrboqiyiligini izohlar ekan. Ayni choqda badiiy go‘zallikning bevosita so‘z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor [2].

So‘z san’atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so‘zning o‘nlab ma’no qirralari, badiiy tasviriy vositalari, poetik ko‘chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin. Maqollar matnida badiiy go‘zallikning bevosita so‘z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatidan quyidagi turlari kuzatiladi:

1. Tazod (zidlash, qarshilantirish) – mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at, nasr yo nazmda bir-biriga qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni ishlatish. Bu maqollarning qutbiylik belgisiga asoslanib, maqol tematikasiga ko‘ra ikki qarama-qarshi shaxs, narsa-predmet, voqea-hodisa, xatti-harakat kabilar o‘zaro qiyoslanib, zidlanib maqolda ifodalangan xulosa beriladi. Ushbu san’at o‘zbek va koreys maqollarining har ikkalasida ham ko‘p kuzatiladi:

가까운 이웃이 먼친척보다 낫다 (*Yaqindagi qo‘shni uzoqdagi qarindoshdan yaxshi.*

Muqobili: *Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi yot yaxshi.*

Keltirib o‘tilgan koreys maqolining o‘zbek tilidagi muqobili deyarli bir xil. Maqolda “qo‘shni” va “begona” unga muqobil sifatida keltirilgan o‘zbek maqolidagi “qarindosh” va “yot” so‘zlari o‘zaro zidlanib, qiyoslanib xulosaga asos bo‘lmoqda. Ushbu so‘zlar zartli zid ma’noli so‘z bo‘lib, majoziy ma’noda qo‘llangan. Maqolning muqobili sifatida keltirilgan “Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi yot yaxshi” maqoli orqali yanada yaqqolroq ko‘rish mumkin. (Uzoqdagi



senga qarindosh bo'lsa-da, u uzoqda, undan foyda yo'q, u sening kunningga yaramaydi. Yaqindagi yot, qo'shni yaraydi. Uni qadriga yet. U qarindosh-u, bu begona deb ajratma deyilmoqda.

1. **Alleteratsiya va assonans (tovushdoshlik, ohangdoshlik)** – she'riy nutqda

(nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi. Ushbu badiiy unsur maqolda o'ziga xos vosita sanaladi:

Koreyscha : 소는 소힘, 새는 새힘.

지게 지고 제사 지내도 다 제멋.

O'zbekcha: *Boy boyga boqar, suv soyga oqar.*

Ushbu maqolda “ㅅ”, “ㄴ”, “ㅎ”, “ㅇ”; “ㄷ”, “ㅂ”, “ㄹ”, ikkinchisida “ㅈ”, “ㅊ”; “ㅌ”, “ㅍ”, “ㅍ” undosh va unli tovushlari, o'zbek maqollarining birinchisida “b”, “y”, “r”, “s”; “o”, “a”, ikkinchisida “q”, “l”; “a” tovushlari o'zaro uyg'unlashib, undoshlar o'zaro alleteratsiyani, unlilar esa assonansni tashkil qilgan. Maqolda tovushlarning bunday uyg'unligi maqolning ta'sirchanligi orttirib va esda qolishini osonlashtiradi. Bunday uyg'unlikni o'zbek maqollarida ko'proq kuzatish mumkin.

2. **Metafora – ko'chim (o'xshatish).** Ko'chimning bir turi bo'lib, narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Metafora mohiyatan yashirin o'xshatish bo'lib, unda o'xshatilayotgan narsa tilga olinmagani holda, uning ma'nosini o'xshayotgan narsa (ya'ni uni ifodalayotgan so'z) bildiradi:

미꾸라지 한 마리가 온 웅덩을 흐려 놓는다.

Bir shaltoq buzoq butun podani buzadi.



Ushbu ma'qolda “미꾸라지 한 마리” ya'ni “shaltoq buzoq” bu “tarbiyasi, axloqi buzilgan, saviyasi yaxshi bo'lmagan inson” inson obrazi sifatida, “웅덩” ya'ni “poda” esa insonlar jamoasi, to'da, jamiyat ma'nosida kelmoqda. Ya'ni tarbiyasi yaxshi bo'lmagan, axloqi yomon inson o'zi kirgan jamoani ham buzishi, o'ziga o'xshatishi mumkinligi kuzatilgan hayotiy misol orqali berilmoqda.

4. Tashxis (jonlantirish)

바늘 가는데 실 간다. (*Ip igna ortidan boradi*)

Mazkur koreys maqolida ip va igna majoziy obraz bo'lib, unda ikki insonning bir-biri bilan yaqinligi va ajralmasligi xuddi ip ignaning ketidan ergashib yurishiga o'xshatilmoqda. “Igna” va “ip” elementlari esa jonlantirilmoqda. Yoki o'zbek tilida:

“O'tin ayirgan bolta maydonda qolar”.

Bu maqolda odamlarni toifalarga: pulli-pulsiz, amalli-amalsiz, foydali-foydasizga ajratib muomala qilish o'sha shaxsning xalqdan ajralib qolishiga sabab bo'lishi aks etgan. Ikkinchidan, biror muammoni hal qilishda faol ishtirok etgan odam, ko'pincha, ish bitganidan so'ng esdan chiqishi ifodalangan. Ya'ni o'tin yorgan bolta ish bitganidan so'ng o'sha joyda qolishiga qiyoslangan [3].

5. Majoz yoki allegoriya. Odatda, o'xshatishning asosi hisoblanadi. Lekin majoz deganda ko'p holatlarda hayvon obrazlari orqali inson holati yoki ichki dunyosini yoritish tushuniladi. Hayvonlar vosita qilib olingan kichik hikoya ya'ni masal asosida ham majoz yotadi. O'zbek va koreys maqollarida qo'llanadigan majozni kuzatar ekanmiz, koreys maqollarida majoz sifatida tulki, ayiq, maymun, yo'lbars, sigir, it, cho'chqa vosita qilib olinsa, o'zbek maqollarida esa, asosan, bo'ri, echki, eshak, ot, it, bulbul, qo'y, buzoq kabi hayvon va parranda nomlari uchrashiga guvoh bo'ldik. Masalan, koreys maqollari:



여우를 피해서 호랑이를 만났다 (*Tulkidan qochaman deb yo'lbarsga tutildi*).

6. Sifatlash

모르는 게 약, 아는 게 병 (*Bilmaslik – davo, bilish – kasallik*).

말은 은이요, 침묵은 금이다 (*Gapira olish kumush bo'lsa, jim tura olish oltindir*).

Ushbu maqollarda “bilmaslik davo”, “bilish kasallik”, “gapirish kumush”, “jim turish oltin” birikmalarida sifatlash ishtirok etgan. Yoki o'zbek tilida:

Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin.

Maqolda insonlar o'rtasidagi munosabar faqat moddiy narsa bilan emas, shirin muomala bilan qadrlanishi qayr qilinmoqda. “Bug'doy non”, “bug'doy so'z” birikmasida sifatlash san'ati qo'llangan [4].

빚 보증하는 자식 // 낳지도 마라 (*Qarzga kafil bo'ladigan bolani tug'ma*).

Muqobili: *Kafil bo'lguncha, kafting bilan cho'g' ushla.*

Kafil bo'lgan kafansiz ketar.

Maqollardagi yana bir badiiy unsur bu qofiyadir. Maqollarning qofiyalanish tizimiga ega ekanligi bu ularning og'izdan og'izga ko'chishi va kishilar xotirasida saqlanib qolishining asosiy sababidir. Shuning uchun ham, maqollarga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Koreys maqollarining aksariyatida esa qofiyadan ko'ra ritmik tuzilishga e'tibor berish yetakchilik qiladi.

Koreys xalq maqollari tuzilishi jihatidan qisqa va uzun bo'lib, qisqa tuzilgan maqollar tugal fikr bildiruvchi sodda gap ko'rinishida bo'lsa, uzun ko'rinishdagi maqollar esa qo'shma yoki murakkab gap ko'rinishida bo'ladi. Koreys xalq maqollarida qofiyalanish tizimi o'ziga xos. Maqollardagi ohangdorlik she'riy



(운율적) va sintaktik (통사적) turlarga bo‘linadi. She’riy uyg‘unlikka ikki yo‘l bilan erishish mumkin: qofiya va ritm. Bulardan birinchi usul alliteratsiya (두운), qofiya (각운) yoki so‘zni aynan takrorlash orqali hosil bo‘ladi. Masalan:

초고리는 작아도 꿍만 잡는다. (alliteratsiya)

(Kichkina sim chiviq ham qirg‘ovulni tuta oladi)

Muqobili: Kichikni yosh dema, kesakni – tosh.

물어도 준치, 썩어도 생치. (qofiya)

Muqobili: Yaxshi odam qarisa ham so‘zi aynimas,

Yaxshi ot qarisa ham yurishi aynimas.

바람 부는 대로, 물결 치는 대로. (so‘zni aynan takrorlash)

(Shamol va to‘lqinlarga qarab suziladi.)

Muqobili: Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.

Koreys maqollaridagi ritm, asosan, koreys an’anaviy she’riyati (Sijo) ga xos bo‘lgan 4 bo‘g‘inli 2 ritmik bo‘lak ko‘rinishida uchraydi. Bunda mazmunni anglatishda qofiyaga emas, balki bo‘g‘inlar soni uyg‘unligiga ahamiyat beriladi. Masalan:

공든 탑이 // 무너지랴. (4/4)

(Mashaqqat bilan qurilgan bino qulamaydi)

Muqobili: Mehnat baxt keltirar.

무른 땅에 // 말뚝 박기. (4/4)

(Yumshoq yerga ustun qoqish)

Muqobili: 1. Xamirdan qil sug‘urish. (oson ish – ibora ma’nosida)

- Bulutning qadri yo‘q oy yonida, faqirning qadri yo‘q boy yonida. (maqol)

Shu bilan birga, 3/4, 5/5, 6/5, 6/6, 7/5 bo‘g‘inli maqollar ham keng uchraydi:



자는 범 // 코침 주기. (3/4)

(Uxlayotgan ilonni qitiqlash)

Muqobili: *Parvonaning o'lgisi kelsa, sham bilan o'ynashar.*

굿이나 보고 // 떡이나 먹다. (5/5)

(Tomoshani ko'rgin-u, guruchli pirogni yeb qol).

Uzumini yegin-u, bog'ini so'rama.

구더기 무서워 // 장 못 담글까. (6/5)

(Lichinkadan qo'rqqan soyali sousni yopa olmaydi)

Muqobili: *Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.*

빛 보증하는 자식 // 낱지도 마라. (7/5)

(Qarzga kafil bo'ladigan bolani tug'ma)

Muqobili: *Kafil bo'lguncha, kafting bilan cho'g' ushla.*

Kafil bo'lgan kafansiz ketar.

Koreys maqollaridagi sintaktik ohangdorlikka ega maqollarning barchasi ko'p sintaktik butunlikdan iborat maqollar bo'lib, bunday maqollar barcha koreys xalq maqollarining 10 % ini tashkil qiladi [5].

가루는 칠수록 고와지고, 말은 할수록 거칠어진다.

(Xamirni ko'p qorganing sari yumshoqlashadi, gapni ko'p qilganing sari qo'pollashadi)

윗물이 맑아야, 아랫물이 맑다.

(Suvning usti tiniq bo'lsa, osti ham tiniq bo'ladi)

Muqobili: *Kichiklar kattaga ergashar.*

O'zbek xalq maqollarini kuzatar ekanmiz, ulardagi ohangdosh so'z – qofiya ishtirokining hammasida birdek ustunligini ko'ramiz:

Tinchlik – baxt, sog'lik – taxt.



Aytar soʻzni ayt, aytmas soʻzdan qayt.

Mehnatdan kelsa boylik, turmush boʻlar chiroylik.

Xullas, keltirib oʻtgan mavzulardagi maqollarning har ikkala tilda unchalik katta farqlari topilmadi. Ushbu maqollarni oʻzaro qiyoslab, yuqorida koʻrib oʻtgan asoslarga koʻra oʻrganish, oʻzbek tilini kompyuterga kiritish uchun baʼza hosil qilishga, chet tillarini yanada oʻrganish va chet tilida oʻz fikrimizni ifodali, taʼsirchan ifoda etishga yordam beradi. Qolaversa, tarjima orqali koreys maqollari bilan nutqimizni yanada boyitishga va oʻzbek maqollarini jahonga chiqarishga yordam berishi, shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Bafojev F.S. Oʻzbek va nemis maqollari qiyosiy tahlili: Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan BMI. – T., 2014. – 43 b.
2. Madayev O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – T.: Mumtoz Soʻz, 2010. – 71 b.
3. *Qarang:* Madayev O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – T.: Mumtoz Soʻz, 2010. – 73 b.
4. *Qarang:* Madayev O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – T.: Mumtoz Soʻz, 2010. – 72 b.
5. Manba: encykorea.aks.ac.k. 심재기, 김선풔. «속담», 한국민족문화대백과사전. South Korea, 2021.
6. 한글학회, «우리말 큰 사전», 어문각, 1995. – 2394 쪽.